XXI asrning uchinchi o'n yilligida insoniyat "to'rtinchi sanoat inqilobi"ning eng faol bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu davrda ma'lumotlar nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki global iqtisodiyotning eng qimmatli resursi sifatida e'tirof etilmoqda (United Nations Development Programme, 2025). Raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olib, shaxsga doir ma'lumotlarning (ShDM) misli ko'rilmagan hajmda yaratilishi, to'planishi va qayta ishlanishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida mamlakatni mintaqaviy AT-xabga aylantirish, elektron hukumatni rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot ulushini keskin oshirish maqsad qilingan (Government Portal of the Republic of Uzbekistan, 2026). Biroq ushbu maqsadlarga erishish shaxsning raqamli suvereniteti va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi mustahkam huquqiy poydevorni talab qiladi.

Global miqyosda kuzatilayotgan tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish instituti endilikda shunchaki shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash doirasidan chiqib, milliy xavfsizlik, iqtisodiy raqobatbardoshlik va inson huquqlari himoyasining markaziy bo'g'iniga aylandi (Kolawole, 2024). Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) (Tobias, 2023) tomonidan o'rnatilgan муҳим қоидалар, Xitoyning Ma'lumotlar xavfsizligi to'g'risidagi qonuni (DSL) va 2023-yilda Hindistonda qabul qilingan Raqamli shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun (Tobias, 2023) kabi hujjatlar dunyo bo'ylab ma'lumotlardan foydalanishning yangi arxitekturasi shakllantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni (Republic

of Uzbekistan, 2019) sohani huquqiy tartibga solishda dastlabki va muhim qadam bo'ldi. Ammo oradan o'tgan qisqa vaqt ichida texnologik reallik keskin o'zgardi: sun'iy intellekt texnologiyalarining, xususan, generativ modelarning keng tarqalishi, biobanklar va genomika sohasidagi yutuqlar, shuningdek, transchegaraviy ma'lumotlar oqimining globallasuvi milliy qonunchilikdagi jiddiy bo'shliqlarni yuzaga chiqardi. Xususan, ma'lumotlarni mahalliyashtirish talablarining qat'iyashtirilishi, biometrik va genetik ma'lumotlar bilan ishlashdagi noaniqliklar hamda avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlarida inson huquqlarining kafolatlanmaganligi huquqiy islohotlarni kun tartibiga qo'yimoqda.

Shu nuqtayi nazardan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga, xususan, Shaxsga doir ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlashda jismoniy shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaga (108-sonli Yevropa konvensiyasi) va GDPR talablariga muvofiqashtirish, shu bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishning optimal balansini topish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi global huquqiy tendensiyalar va zamonaviy chaqiriqlarni kompleks tahlil qilish asosida, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi fundamental masalalar yechilishi lozim:

– O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 27¹-moddasida belgilangan ma'lumotlarni mahalliyashtirish talabining raqamli iqtisodiyot rivojiga, xususan, xalqaro to'lov tizimlari (Apple Pay, Google Pay, PayPal) va bulutli xizmatlarning kirib kelishiga ta'sirini huquqiy va iqtisodiy jihatdan baholash;

– GDPR va boshqa ilg'or davlatlarda mavjud bo'lgan "unutilish huquqi",

“ma’lumotlarni ko’chirish huquqi” va “avtomatlashtirilgan qarorlarga e’tiroz bildirish huquqi”ning O’zbekiston qonunchiligiga integratsiya qilish zaruratini asoslash;

– sun’iy intellekt va biobanklar faoliyatida shaxsga doir maxsus toifadagi ma’lumotlarni qayta ishlashning o’ziga xos huquqiy rejimini tahlil qilish va “ilmiy tadqiqotlar uchun istisno” institutini joriy etish imkoniyatlarini o’rganish;

– ma’lumotlarni himoya qilish bo’yicha vakolatli organ faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiqligini tahlil qilish.

Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlari jahon huquqshunosligida keng o’rganilgan mavzulardan biridir.

Tobias Naef o’zining “Data Protection without Data Protectionism” nomli fundamental tadqiqotida ma’lumotlarni himoya qilish huquqining ekstraterritorial ta’sirini tahlil qiladi (Tobias, 2023). U “hududiy kengayish nazariyasi” va “uzluksiz himoya huquqi” konsepsiyalarini ilgari surib, ma’lumotlar qayerga uzatilishidan qat’i nazar, ularga nisbatan himoya standarti pasaymasligi kerakligini, ammo bu jarayon savdo to’siqlariga aylanmasligi lozimligini asoslaydi. Naefning yondashuvi Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) qoidalari va inson huquqlari o’rtasidagi ziddiyatlarni yechishda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Markus Naerttjärvi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan sun’iy intellekt va biometrik ma’lumotlardan foydalanishda “operatsion samaradorlik” va “huquqiy zarurat” o’rtasidagi ziddiyatni o’rgangan (Markus, 2023). Uning Shvetsiya politsiyasining yuzni tanish tizimidan foydalanishi bo’yicha tahlili O’zbekistondagi “Xavfsiz shahar” loyihalari tahlili uchun muhim qiyosiy manbadir.

Biobanklar va genetik tadqiqotlar sohasida Mahsa Shabani, Gauthier Chassang va Luca Marelli kabi olimlar GDPRning 89-moddasi va “keng qamrovli rozilik” muammolarini tadqiq qilishgan (Shabani & Borry, 2018).

Ular qat’iy qoidalar ilmiy hamkorlikni to’sib qo’yishi mumkinligidan ogohlantirib, “boshqariladigan kirish” (*managed access*) modelarini taklif etishadi.

O’zbekistonlik olimlardan professor S.S. G’ulomov raqamli makonda kiberxavfsizlik va ma’lumotlar himoyasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini, shuningdek, sun’iy intellektni tartibga solishning axloqiy va huquqiy jihatlari chuqur o’rgangan. Uning tadqiqotlari raqamli meros va kiberxavfsizlik arxitekturasi masalalarini qamrab oladi (Gulyamov, 2023). Sh.N. Isaqulov esa shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishning jinoyat-huquqiy jihatlari, shuningdek, yuridik shaxslarning ma’lumotlarini himoya qilish imkoniyatlarini tahlil qilgan (Isaqulov, 2021). X. Jo’rayev O’zbekiston qonunchiligini GDPR va AQSH qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilib, “unutilish huquqi” va ma’lumotlar sizib chiqishi haqida xabardor qilish majburiyatining yo’qligini asosiy bo’shliqlar sifatida ko’rsatadi (Jurayev, 2020).

Biroq mavjud milliy tadqiqotlarda ma’lumotlarni mahalliyashtirish siyosatining (O’RQ–547-son, 27¹-modda) makroiqtisodiy ta’siri, biobanklar faoliyatida ma’lumotlar himoyasining o’ziga xosligi hamda bolalar ma’lumotlarini raqamli muhitda himoya qilish masalalari kompleks tarzda, xalqaro iqtisodiy huquq va inson huquqlari kesishmasida yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqola ushbu bo’shliqlarni to’ldirishga qaratilgan.

Metodlar

Ushbu maqola O’zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi qonunchiligini rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro huquqiy standartlar orqali kompleks tahlil qilishga bag’ishlangan. Tadqiqot qamrovi quyidagi asosiy yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

– O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi O’RQ–547-son, “Genom bo’yicha davlat ro’yxatiga olish to’g’risida”gi O’RQ–649-son, “Axborotlashtirish to’g’risida”gi

qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni o'rganildi;

– O'zbekiston qonunchiligi Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti, Hindistonning "The Digital Personal Data Protection Act" (2023) qonuni va xalqaro biobank tartibotlari bilan solishtirildi. Xususan, ma'lumotlar subyekting roziligi, ma'lumotlar operatorining javobgarligi va transchegaraviy uzatish mexanizmlari qiyoslandi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektik bilish usuli tanlangan bo'lib, u shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish institutini doimiy rivojlanish va o'zgarishda bo'lgan ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, quyidagi maxsus metodlar qo'llandi:

– *qiyosiy-huquqiy metod*: ushbu usul O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunidagi "operator" va "mulkdor" tushunchalarini GDPRdagi "controller" va "processor" institutlari bilan qiyoslashda, shuningdek, Hindistonning 2023-yildagi DPDPA qonunida aks etgan Ma'lumotlar fidutsiariysi konsepsiyasini o'rganishda asosiy rol o'ynadi. Mazkur tahlil natijasida milliy qonunchilikdagi terminologik hamda konseptual nomutanosibliklar aniqlandi;

– *formal-yuridik metod*: qonun normalarining ichki tuzilishi, yuridik texnikasi va o'zaro muvofiqligi tahlil qilindi. Xususan, O'RQ-547-sonli qonunning 27¹-moddasi va O'zbekiston ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalar o'rtasidagi kolliziyalar o'rganildi;

– *tizimli tahlil*: shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi yagona ekotizim sifatida ko'rib, uning tarkibiy qismlari: qonunchilik, vakolatli organ, subyektlar, texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik o'rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni

yig'ish, qayta ishlash, saqlash va himoya qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquqiy normalar majmui belgilandi.

Natijalar

Tadqiqot davomida to'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlar O'zbekistonda raqamli muhitning jadal kengayishi fonida ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq xavflarning ham keskin ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston kiberxavfsizlik makonida 12 milliondan ortiq kiberhujum qayd etilgan (Kun.uz, 2025). Bu raqam milliy axborot tizimlariga bo'lgan tashqi va ichki tahdidlarning ko'lami naqadar kengligini anglatadi. Solishtirish uchun, global miqyosda 2024-yilda ma'lumotlar sizib chiqishi oqibatida 1,7 milliarddan ortiq shaxs jabr ko'rgan.

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor ma'lumotlar bazalariga uyushtirilayotgan kiberhujumlar nafaqat yirik moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda, balki fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ham jiddiy xavf tug'dirmoqda.

O'tkazilgan qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil natijasida O'zbekiston qonunchiligida quyidagi tizimli muammolar va bo'shliqlar aniqlandi:

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019-y.) konseptual jihatdan Yevropaning 1995-yildagi Direktivasiga yaqin bo'lib, zamonaviy GDPR standartlaridan ortda qolmoqda. Qonunda quyidagi muhim institutlar mavjud emas yoki deklarativ xarakterga ega:

– tizimlarni yaratish bosqichidayoq maxfiylikni ta'minlash tamoyili kiritilmagan;

– ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mas'ul xodimni tayinlash majburiyati faqat tor doiradagi subyektlar uchun nazarda tutilgan;

– GDPR bo'yicha 72 soat ichida xabardor qilish talabi mavjud bo'lsa, O'zbekiston qo-

nunchiligida operatorlarning bunday qat'iy majburiyati va uning mexanizmlari aniq belgilanmagan (Jurayev, 2025).

O'zbekiston Respublikasining 2020-yildagi "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi O'RB-649-son Qonuni asosan kriminalistik va sud-tibbiy ekspertiza maqsadlariga xizmat qiladi. Biroq ilmiy-tadqiqot maqsadlaridagi biobanklar faoliyati uchun zarur bo'lgan "keng qamrovli rozilik" yoki "ilmiy istisno" normalari mavjud emas (Slokenberga et al., 2021). Bu esa tibbiyot va genetika sohasidagi innovatsion tadqiqotlarni qiyinlashtiradi, chunki har bir yangi tadqiqot uchun subyektdan qayta rozilik olish talabi amaliyotda imkonsiz bo'lishi mumkin (Kranendonk et al., 2015).

"Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunga sun'iy intellekt bo'yicha o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa-da, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda GDPRning 22-moddasi analogi – shaxsning faqat avtomatlashtirilgan qayta ishlashga asoslangan yuridik oqibat tug'diruvchi qarorlarga bo'ysunmaslik huquqi hali ham mavjud emas (Government of the Republic of Uzbekistan, 2026). Bu SI algoritmlari tomonidan qabul qilingan qarorlar (masalan, kredit ajratish, ishga qabul qilish) ustidan shikoyat qilishda huquqiy bo'shliqni yaratadi.

Muhokama

So'nggi o'n yil ichida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha keng qamrovli qonunlarni qabul qilayotgan davlatlar soni keskin oshdi (Bissaliev, 2023). Ko'pgina mamlakatlar Yevropa Ittifoqining GDPR tizimini namuna sifatida olib, uni mahalliy sharoitlarga moslashtirmoqda. Tartibga solish endilikda faqat bir nechta rivojlangan iqtisodiyotlar bilan cheklanib qolmayapti; rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlar ham ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik qonunchiligini joriy qilmoqda.

Sun'iy intellekt tizimlari shaxslar haqida qarorlar qabul qilishda yoki yordam berishda tobora ko'proq ishtirok etayotgani sababli,

bunday tizimlarning shaffofligi, adolatligi va hisobdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Qonun qabul qiluvchilar algoritmik ta'sirni baholashni, avtomatlashtirilgan qarorlar bo'yicha tushuntirish berishni va ma'lum bir SI turlaridan foydalanishni taqiqlashni talab qiluvchi qonunlarni taklif qilmoqdalar. Bundan tashqari, SI modellarini o'qitishda foydalaniladigan ma'lumotlar qayta identifikatsiya qilish xavfining oldini olish uchun ehtiyotkorlik bilan anonimlashtirilishi yoki taxalluslashtirilishi kerak.

Ko'pgina davlatlar hozirda "ma'lumotlar suvereniteti"ga urg'u bermoqda, ya'ni fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari mamlakat ichida saqlanishi, qayta ishlanishi yoki hech bo'lmaganda nusxalanishi kerak (Irnazarov, 2025). Bu ko'pincha xavfsizlik, yurisdiksiyaviy nazorat va xorijiy kuzatuvlardan himoya qilish zarurati bilan izohlanadi. Biroq qat'iy lokalizatsiya global bulutli arxitekturalarga, transchegaraviy biznes operatsiyalariga va erkin ma'lumotlar oqimiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mazkur sohani tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat – "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Ushbu qonun shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasini huquqiy jihatdan belgilab beradi, subyektlarning vazifalarini reglamentatsiya qiladi hamda shaxsga doir ma'lumotlar bazalarini Davlat reyestridan o'tkazish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, hujjatda ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berishda subyektning roziligi (aksariyat hollarda) yoki boshqa qonuniy asoslar mavjudligi qat'iy talab etiladi.

Bugungi kunda davlatimiz raqamli suverenitetni ta'minlash yo'nalishida tizimli islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 2019-yilda sohaga oid maxsus qonunning qabul qilinishi, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun (Republic of Uzbekistan, 2022) hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini tartibga soluvchi normalarning O'zbekistonni mintaqada raqamli huquqiy tartibga solish

bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqmoqda.

Milliy qonunchilikdagi muhim talablardan biri – mulkdor (yoki) operator O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga axborot texnologiyalari yordamida ishlov berishda, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'ida ishlov berishda ularning jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda belgilangan tartibda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida yig'ilishini, tizimlashtirilishini va saqlanishini ta'minlashi shart. 2021-yilda ushbu mahalliyashtirish talabini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga 27¹-modda kiritildi (Kun.uz, 2024).

Ma'lumotlarning xavfsizligi ularning qayerda joylashgani bilan emas, balki qanday himoyalangani (shifrlash, kirish nazorati) bilan belgilanadi. Zamonaviy bulutli texnologiyalar ko'pincha mahalliy data-markazlarga qaraganda yuqori xavfsizlik standartlarini ta'minlashi mumkin.

Bundan tashqari, bolalar huquqlarini raqamli muhitda himoya qilish masalasini qonunchilik darajasida tartibga solish zaruriyati mavjud. Xususan, ota-onalar tomonidan farzandlarining shaxsiy ma'lumotlari (suratlari, videolari)ni ommaviy tarqatishi va bolalarning "raqamli rozilik yoshi" bo'yicha aniq normalarning mavjud emasligi kelajak avlodning shaxsiy daxlsizligiga xavf solishi mumkin.

Shu bilan birga, "O'zkomnazorat" inspeksiyasi yoki sudlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlar sohasida qo'llangan sanksiyalar, jarimalar va ko'rilgan ishlar bo'yicha ochiq, markazlashgan reyestrning mavjud emasligi qonun ijrosining real holatini empirik baholashni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, milliy qonunchilikdagi "operator" va "mulkdor" tushunchalari xalqaro standartlardagi (GDPR)

"controller" va "processor" institutlariga to'liq muvofiq kelmaydi. Bunday terminologik nomutanosiblik xalqaro shartnomalarni tuzishda, transchegaraviy ma'lumotlar almashinuvida hamda subyektlar o'rtasida javobgarlikni taqsimlashda huquqiy chalkashliklarni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi rivojlanish bosqichida bo'lib, institutsional va qonunchilik darajasida islohotlar amalga oshirilishiga ehtiyoj mavjud.

1. Hozirgi vaqtda O'zbekiston qonunchiligi ma'lumotlar buzilishi haqida xabar berishni aniq talab qilmaydi. Bu bo'shliq hisobdorlikni zaiflashtiradi va shaxsiy ma'lumotlar buzilganda tuzatish choralari kechiktiradi. Yevropa Ittifoqi, AQSH va Janubiy Koreya kabi yetakchi davlatlar ham nazorat organlarini, ham jabrlangan shaxslarni tezkor xabardor qilishni talab qiladi. Shuning uchun qonunga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishi kerak:

– shaxslarning huquq va erkinliklariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan buzilish aniqlanganda, nazoratchilar va ma'lumotlarni qayta ishlovchilarga vakolatli organni xabardor qilish majburiyatini yuklash (masalan, 72 soat ichida);

– buzilish jiddiy xavf tug'dirganda, jabrlangan ma'lumotlar subyektlarini bevosita xabardor qilishni talab qilish, bu shaffoflikni ta'minlaydi va o'z-o'zini himoya qilish choralari ko'rish imkonini beradi;

– hodisaning tabiati, ta'sirga uchragan ma'lumotlar toifalari, ehtimoliy oqibatlar va oldini olish choralari o'z ichiga olgan hisobotlar uchun uning mazmuniga qo'yiladigan minimal talablarini belgilash.

2. Mavjud nazorat funksiyalari to'liq operativ mustaqillikka va ixtisoslashgan salohiyatga ega bo'lmagan Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat personallashtirish markazida jamlangan. Xalqaro ilg'or tajriba shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarni himoya qilish regulyatorlari tizimli mustaqil, barqaror

moliyalashtirish va ijro etish vakolatlariga ega bo'lishi kerak. Islohotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

– amaldagi nazorat tuzilmasini Parlament oldida hisobdor bo'lgan, o'z byudjetiga va mustaqillikning qonuniy kafolatlariga ega bo'lgan mustaqil Ma'lumotlarni himoya qilish organiga aylantirish;

– inspektorlarni doimiy o'qitish, raqamli kriminalistika bo'linmalari va kiberxavfsizlik hamda telekommunikatsiya organlari bilan idoralararo hamkorlik orqali institutsional salohiyatni oshirish.

3. Sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarining rivojlanishi avtomatlashtirilgan profillash, kamsitish va shaffof bo'lmagan qaror qabul qilish bilan bog'liq yangi xavflarni yaratmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning qonunchilik bazasi algoritmik ma'lumotlarni qayta ishlashni bevosita tartibga solmaydi yoki potensial suiiste'molliklarga qarshi himoya choralari o'rnatmaydi. Ushbu yangi muammoni hal qilish uchun:

– shaxslarning tushuntirish olish va inson tomonidan qayta ko'rib chiqilishini talab qilish huquqlarini kafolatlash, ayniqsa, bandlik, kredit yoki davlat xizmatlaridan foydalanishga ta'sir qiluvchi qarorlarda;

– global miqyosda muhokama qilinayotgan sun'iy intellekt etikasi ko'rsatmalariga muvofiq, yolg'on axborotlarga qarshi kurashish uchun sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentni markirovka qilishni majburiy etib belgilash;

– inson qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizlik yoki asosiy erkinliklarni buzadigan sun'iy intellekt foydalanishining ayrim turlarini taqiqlash;

– bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash uchun raqamli rozilik yoshini aniq belgilash. Ungacha bo'lgan davrda otanonalar roziligini olish mexanizmlarini joriy etish.

4. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonunining 27¹-moddasini qayta ko'rib chiqish. Amaldagi qonunchilikdagi fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini faqat O'zbekiston hududidagi texnik vositalarda saqlash bo'yicha imperativ talabni yumshatish taklif etilmoqda. Buning o'rniga, "muqobil himoya" mexanizmini joriy etib, agar xorijiy subyektlar O'zbekistonning xavfsizlik standartlariga rioya qilishni kafolatlasa, ma'lumotlarning transchegaraviy harakatiga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. Bu *Apple Pay*, *Google Pay* kabi xizmatlar uchun O'zbekiston hududiga kirish imkoniyatini ochadi.

Islohotlarning murakkabligini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi muhimdir. Yangi qoidalarni dastlab davlat organlari va yirik kompaniyalarga, so'ngra kichik va o'rta biznesga tatbiq etish kerak. Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarni tizimlashtirish va qonun samaradorligini har 3–5 yilda bir marta qayta ko'rib chiqish mexanizmini o'rnatish lozim.

REFERENCES

1. Bissaliev, M. S. (2023). *Personal data of legal entities as a potential special object of legal protection in cyberspace*. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/380142699_Personal_data_of_legal_entities_as_a_potential_special_object_of_legal_protection_in_cyberspace

2. Government of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Liability established for the illegal processing of personal data using artificial intelligence*. Davlat.uz. <http://davlat.uz/en/digital/news/view/122739>

3. Government Portal of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Digital technology and transport*. https://gov.uz/en/activity_page/digital_technology
4. Gulyamov, S. S. (2023). Automating the judicial system: Embracing artificial intelligence for transparency and efficiency. *Roma Tré Law Review*, (1), 185–204. <https://romatrepress.uniroma3.it/wp-content/uploads/2023/10/10.-Saidakhrarovich-RTLRL-1-2023-ebook-10.pdf>
5. Irnazarov, F. (2025). *Youth and digital technology in Central Asia: A comparative analysis of Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Tajikistan*. Central Asia-Caucasus Institute and Silk Road Studies Program.
6. Isaqulov, Sh. N. (2021). *Improving criminal liability for violation of personal data privacy* (Abstract of doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.
7. Jurayev, Kh. (2020). Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishda "unutilish huquqi" va xorijiy tajriba [The "right to be forgotten" in the protection of personal data and foreign experience]. *Journal of Law Research*, (6), 45–52.
8. Jurayev, Kh. (2025). *Comparative legal analysis of personal data in the legislation of Uzbekistan, Europe and the USA*. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/399253642_Comparative_legal_analysis_of_personal_data_in_the_legislation_of_Uzbekistan_Europe_and_the_USA
9. Kiteworks. (2025). *Top 11 data breaches in 2024 and their risk exposure score*. <https://www.kiteworks.com/sites/default/files/resources/kiteworks-report-top-11-data-breaches-and-their-risk-exposure-score.pdf>
10. Kolawole, A. (2024). Legal aspects of personal data protection and the issues of competition in digital marketplaces. *Journal of Digital Technologies and Law*, 2(4), 785–814. <https://doi.org/10.21202/jdtl.2024.31>
11. Kranendonk, E. J., Ploem, M. C., & Hennekam, R. C. (2016). Regulating biobanking with children's tissue: a legal analysis and the experts' view. *European journal of human genetics: EJHG*, 24(1), 30–36. <https://doi.org/10.1038/ejhg.2015.59>
12. Kun.uz. (2024, May 22). *Apple Pay va Google Pay O'zbekistonga kirishni nega rad etayotgani ma'lum bo'ldi* [The reasons why Apple Pay and Google Pay are refusing to enter Uzbekistan have been revealed]. <https://kun.uz/86832781>
13. Kun.uz. (2025, February 3). *Over 12 million cyberattacks recorded in Uzbekistan in 2024*. <https://kun.uz/en/news/2025/02/03/over-12-million-cyberattacks-recorded-in-uzbekistan-in-2024>
14. Markus, N. (2023). AI and sensitive personal data under the Law Enforcement Directive: Between operational efficiency and legal necessity. *YSEC Yearbook of Socio-Economic Constitutions*, 331–357.
15. Republic of Uzbekistan. (2019, July 2). *On personal data (Law No. LRU-547)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4396419>
16. Republic of Uzbekistan. (2022, April 15). *On cybersecurity (Law No. LRU-764)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>
17. Shabani, M., & Borry, P. (2018). Rules for processing genetic data for research purposes in view of the new EU General Data Protection Regulation. *European Journal of Human Genetics*, 26(2), 149–156.
18. Slokenberga, S., Tzortzatou, C., & Reichel, J. (Eds.). (2021). *GDPR and biobanking: Individual rights, public interest and research regulation across Europe*. Springer.
19. Tobias, N. (2023). *Data protection without data protectionism: The right to protection of personal data and data transfers in EU law and international trade law*. Springer.
20. United Nations Development Programme. (2025). *Digital economy of Uzbekistan*. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_eng.pdf

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)